

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2006-yil 26 - iyun - 2 - iyul N:26 (66567)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

27-IYUN - MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI BIR MAQOLA SABAB...

Salom qadrdon gazetamiz «Tong yulduzi!» Men O'zbekiston Milliy Universitetining jurnalistika fakultetini tamomlab, hozirgi kunda «Gurlan hayoti» gazetasida mas'ul kotib bo'lib ishlab kelyapman. Shuningdek, Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi 6-son gimnaziya maktabi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan «Yosh qalamkashlar» to'garigiga rahbarlik ham qilaman. O'quvchilarimiz orasida qalami yaxshigina charxlanib qolgan, kelajagidan umid qilsa bo'ladiganlari talaygina. Men ularning she'rlaridan saralab, sizlarga yuboryapman. Iltimosim shuki, ularning she'rlarini ham chop etsangiz.

O'quvchilik yillarimda gazetada chop etilgan birgina maqolamdan ruhlanib, mana bugun jurnalist bo'ldim. Zora, o'quvchilarimning gazetada chop etilgan she'rlari kelgusida mohir jurnalist yoki elning nazari tushgan shoir bo'lib yetishishlariga turtki bo'lsa.

Hurmat bilan Hosiya
RAJABOVA.

OYMOMAGA SAVOLIM

Oymomajon, oymoma,
Ko'kdan boqib turasan.
Yo'limizni yoritib,
Yursak, birga yurasan.

Kechalari uxlamay,
Turasan-a osmonda.
Uying qayda, sen qayga,
G'oyib bo'lasan tongda?

Diyora MATKARIMOVA,
4 - sinf o'quvchisi.



Jurnalistlarning kasb bayrami arafasida tahririyatimizga o'quvchilarimizdan, ularning ustozlaridan juda ko'plab tabrik maktublari keldi. Ular bizni ayyom bilan samimiy qutlab, barakali ijod va omadlar tilashibdi. O'z navbatida biz ham yosh muxbirlarimizni samimiy qutlaymiz. Chunki bu bayram ularning - o'rinbosarlarimizning ham bayramlari-da!

«IJOD GULSHANI» IJODKORLARI

Assalomu alaykum qadri «Tong yulduzi» tahririyati xodimlari! Avvalambor sizlarni kasb bayramingiz bilan chin dildan muborakbod etamiz. Gazetaning biri-biridan mazmunli, qiziqarli sonlarini chop etib, hech horimang. Yana shuni ham aytmoqchimanki, maktabimiz o'quvchilari orasida kundankunga muxlislaringiz soni ortgandan ortib bormoqda. Rang-barang bezakli, suratli gazeta sahifalarini qo'lma-qo'l qilib o'qishyapti.

Ayniqsa, maktabimiz qoshidagi «Yosh ijodkor» adabiy to'garagi a'zolarining gazetangizga qiziqishi katta. Sizga havas qilib, o'zlari ham devoriy gazeta chiqarishdi va uni «Ijod gulshani» deb nomlashdi. Ana shu gazetada chop etilgan eng sara she'rlardan jamlab, sizlarga yuboryapman. Umid qilamanki, ularni sahifalaringizda yoritib, ijodkor o'quvchilarimizga ilhom bag'ishlaysiz.

Sizlarga hurmat bilan
Qashqadaryo viloyati, Qarshi
tumanidagi Q. Niyoziy nomli 25-
maktabning ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi Zulayho
XOLMURODOVA.

ONAJON

Ko'zlaringiz chaqnaq turgan
Yulduzlarga o'xshaydi.
Uzun-uzun sochlaringiz
Shabbodada o'ynaydi.
Kulib-kulib so'zlashingiz,
Shodlingingiz ko'rgan on.
Mittigina qalbm ichra,
Quvonch uradi tug'yon.

Sitora BO'RIYEVA.

AJDODLARNI ESLAB...

Vatan nomin pok saqlab,
Jang qilibsiz beomon.
Uni sevib, ardoqlab,
Dushmanga bermay omon.
Afsus, bugungi kunga,
Yetolmabsizlar omon.
Mustaqillik gashtini,
Surolmaganingiz yomon.

YAXSHI SO'Z

Yaxshi so'zda mehr bor,
Yaxshi so'zda sehr bor.
Yaxshi so'z bilan doim,
Ishlaringiz tez bitar.

Yaxshi so'zga hatto ilon,
Indan chiqar, deydilar.
Yaxshi so'z so'zlaganlar,
Nonin butun yeydilar.



Dilso'z NE'MATILAYEVA, 6- «B» sinf o'quvchisi.

QO'G'IRCHOG'IM

Qo'g'irchog'im - ovunchog'im,
O'zim sevgan o'yinchog'im.
Qo'l-oyog'ing soppa-sog',
Harakatsizsan biroq.
Uxlasang hech turmaysan,
Yetaklasam yurmaysan.
U yon - bu yon boq desam,
Boshlaringni burmaysan.
Gaplarimga kirmasang,
Tur deganda turmasang -
Seni uyda qoldiray,
Boshqasini oldiray.

Matluba RAHIMOVA,
8 - sinf o'quvchisi.

BIZGA NIMA BO'LDI?

Osmon tip-tiniq. Yo'laklarda tirmush yumushlari bilan biri ishga, biri o'qishga shoshilayotgan odamlarni kuzataman. Ular orasidagi yupun kiyingan bir kishi diqqatimni tortdi. U xuddi boshqa bir olamda yurgandek, hech kim bilan ishi yo'q edi. Atrofga bepisand qarar, qayerga ketayotganini o'zi ham bilmasdi, go'yo. Siz ham bir qarang-chi, balki bu kishi sizning qo'shningiz yoki do'stingizdir? Balki u qachonlardir sizdan yordam so'rab kelgandir? Uning ham avvallari jamiyatda o'z o'rni, uyi, qarindosh-urug'lari bo'lgandir? U ham birovning ko'ngliga ozor yetkazmaydigan, yaxshi tarbiyalangan kishi bo'lgandir. Birgina giyohvandlik uni shu ko'yga soldi. Ana shu og'u tufayli o'z do'stlaridan, oilasidan, jamiyatdan ajrab, uysiz bir devonaga o'xshab qoldi. Bilasizmi, oramizda ana shunday insonlar minglab yashaydi. Ular ne hasratda topilgan pullarini oz miqdordagi giyohvandlik moddasiga sarflab, o'zlarini kundan-kunga nobud qilib boraveradilar.

Shu ahvolda tubsiz jarlikka yaqinlashaveradilar. Ammo biz uni go'yoki «sezmaymiz». Uning muammolari o'zi bilan, birovning ishiga aralashishga toqatimiz yo'q. Nega shunday? Bizlarga nima bo'ldi? Yoki birgina pul topish bilan odamgarchilikni, yaxshilikni, savob ishlarni unutib qo'ydikmi?

Aziz tengdoshim! Esingizda tuting, har qanday kishi ham o'z muammolarini o'zi yecha olmaydi. Natijada u jar yoqasiga borib qolishi, oqibatda kechagina siz uchun qadrli bo'lgan insonni bir umrga yo'qotib qo'yishingiz mumkin. Keling, hammamiz birga umidsizlikka tushib qolgan insonlarga yordam qo'limizni cho'zaylik, ulardan yaxshi so'zimizni, yordamimizni ayamaylik.

Ulbo'sin AMRENOVA,
17 yosh, Qozog'iston Respublikasi.



Yo'qolsin
asr
vabosi!!!



«So'nggi pushaymon, o'zingga
dushman»

Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 1-
maktabning 7-sinf o'quvchisi Dilnavoz
SAIDOVA chizgan rasmlari.

muammosi

Men Surxondaryo viloyatida yashayman. Shundoqqina yonginamizda, tikanli simlar bilan o'ralgan chegaraning narigi tarafida Afg'oniston davlati joylashgan. Butun dunyoga ma'lumki, giyohvandlikning oldi-sotdisi mana shu davlatda juda avj olgan. Tog'li hududlarida bu og'uni yetishtirib, shuning orqasidan tirikchilik qiladiganlar ham bor ekan. Mana shu og'u tufayli necha minglab oilalarning buzilishi, odamlarning hayoti xavf ostida qolishi ularning xayoliga ham kelmaydi. Katta yuk mashinalarda giyohvand moddalarni turli ko'rinishlarda olib o'tmoqchi bo'lgan, natijada chegara xodimlari tomonidan ushlanib, yurtga, elga sharmanda bo'layotgan ba'zi yurtdoshlarimiz-chi? Mo'maygina daromad topish maqsadida boshlari hammaning oldida xam bo'layotgan bu kishilarga nima kerak? Men ham kelajakda chegarachi bo'lib, mana shunday g'alamis kimsalarni payini qirqishga astoydil bel bog'laganman.

Botir JAVLONOV,
Surxondaryo viloyati, Uzun tumani, 9-sinf o'quvchisi.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI URUSH OCHDIM

Shu kunlarda yoshlar orasida ham talaygina muammolar bor. Bularga ichkilikbozlik, giyohvandlik, chekish, terrorizm kabi zararli illatlar kiradi. Menimcha, bularning orasida eng dahshatlisi giyohvandlikdir.

Buning ortidan kelib chiqadigan talaygina jinoyatlarni esa aytmasa ham bo'ladi. Chunki kuchli bosim ostida bo'lgan giyohfurush o'zi nima qilayotganini idrok qila olmaydi. Natijada kimlarnidir umri xazon bo'ladi yoxud kuchli jarohat oladi. Yaqinda televizor orqali Rossiya telekanallarining birida ana shu yo'lga kirib qolgan bir guruh o'smirlar haqida ko'rsatuv berishdi. Unda endigina 12 yoshga qadam qo'ygan bir bolakayning tomiriga ataylab ko'p miqdorda giyohvand moddasini yuborib, uni qanday qilib jon berishini shunchaki ermakka tomosha qilishdi. Bolakay esa, «Oyijon, oyijon», deya talpinib-talpinib jon berdi... Bu holatni yuragi toshdan bo'lgan kimsa ko'rganda ham ana shu tosh erib ketgan bo'lardi. Tasvir maxsus telekanalga uzatilgan bo'lib, buni ko'rgan har bir kishi giyohvandlikning oqibati qay darajada bo'lishini anglab yetishi tayin. Men ham tengdoshlarim orasida bu illatga qarshi o'zimcha kurash boshladim. Hozirgacha biror natijaga erishganim yo'q. Ammo baribir men bu kurashdan tolmayman.

Merim MUXTAROVA, 14 yosh, O'zbekiston, Farg'ona.

26-iyun - Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni

CHEGARADA NIMA GAP?

QANINDA O'ZIMNI QILGILIM?

Mening bobom Shoyusuf ota Jalilov Ikkinchi jahon urushida Yaponiyada jang qilganlar. 1943-yildan 1958 -yilga qadar jamoa xo'jaligida mehnat qilib, yurtimiz ravnaqi uchun ko'p mehnatlari singgan.

Hozirda bobojonim Zangiota tumani, Qumariq qishlog'idagi Hasan Jo'rayev mahallasida 10 nafar farzand, 36 nabira va 23 avaraning ardog'ida yashaydilar.

Yaqinda ularning tavallud kunlari

hammamiz yig'ildik. Gap May bayrami arafasida yig'ilishib, urush qatnashchiganimiz haqida gapirib berdim. bobom ma'yus tortib qoldilar. sababini oyimdan so'rasam:

-E-e, buvangning yarasiga san-da,-dedilar. -Xotira bayrami mizdagi urush qatnashchilarini kelibdi. Ammo buvangni farzandlaridan boshqa hech kim biroz ko'ngillari o'ksibdi,-dedilar.

yosh boladek qalbi nozik bo'lib qoladi. Hatto ko'chadagi chiqindilar-u axlat uyumlarini ko'rib, ranjib ketadilar. Burungi kuch-quvvatim bo'lganida, o'zim tozalab tashladim,- deydi.

Ertasi kuni 5-6 nafar dugonalarim bilan ko'chamizni supurib, chinnidek qilib qo'ydik. Lekin kechga borib, ko'cha yana axlatxonaga aylanib qolibdi. Nega ayrim odamlar shunchalar tubanlashib ketishgan? Davlat tomonidan baland uy yo'laklarini ta'mirlab, chiroyli qilib berishyapti. Ammo o'sha uyda yashaydigan odamlar ta'mirdan keyin ifloslangan yo'laklarning kichkinagina oynasini ham yuvib qo'yishmaydi-ya? Bunaqada ODAMIYLIK qayoqda qoladi?

Shoira JALILOVA,
«Avia» litsey talabasi.

OQ NON QADRI

Bir kuni menga buvim: «Qizim, sizlar baxtli zamonda yashayapsizlar, shuning uchun ham doimo shukur qilishingiz kerak», dedilar. Keyin yana: «Qaniydi bizning zamonlar ham mana shunday to'kis bo'lganida...», deb qo'shib qo'yidilar-da, boshlaridan o'tgan voqealardan so'ylay boshladilar:

-Urush boshlanganida 5-6 yoshli qizaloq edim. Dadamning frontga ketayotgan paytlari hali-hanuz yodimda. Ularni ketib qolayotganliklarini sezib, rosa yig'lagandim. O'shanda yo'lga tushgan dadam orqalariga qaytib kelib, menga do'kondan kattakon tosh qo'g'irchoq olib bergundilar.

Dadam ketganlaridan keyin rosa qiynaldik. Oyim bilan opam bizni bog'ish maqsadida erta-yu kech dalada ishlashardi. Ularning ishlariga yarimta bo'lka non olardik. Atala ichardik, qornim to'yamay yig'lasam, opam menga o'zini nonini berardi. Hozirgi oppoq nonlar qayda, zog'ora non yerdik. Urush tugab, otam uyga qaytgach, ahvolimiz ancha yaxshilandi. Ammo o'sha mash'um kunlar ko'z oldimda qolib ketgan. Shuning uchun ham, bolam, bu kunlarning qadriga yetish, bor ne'matlarni isrof qilmaslik kerak...

Men buvimning so'zlarini eshitib, shunday to'kin-sochinli kunlarda yashayotganimdan quvonib ketdim.

Kamola ERGASH qizi.

Bolajonlar, orangizda kitob o'qimaydiganlar topilmaydi desam, bu fikringa aslo qo'shilmasangiz kerak-a? Kitob o'qigandan ko'ra, mazza qilib to'p tepaman, deydiqanlar ham topiladi. Lekin men o'z fikrimda turib olaman: Axir barchangiz, hatto o'sha o'yinqaroq tengdoshlaringiz ham istaysizmi, yo'qmi, darsliklarni o'qiysiz-ku, to'g'rimi?

O'qishga o'qiysiz-u, lekin uni nashrga tayyorlash jarayonida zahmatkash noshirlarimizning qanchalar mashaqqatli mehnatlari yotishini ko'pchiligingiz tasavvur ham qilolmaysiz. Ayniqsa, fizika, kimyo, algebra, geometriya kabi misol-u masalalari, formulalari serob bo'lgan o'quv darsliklarini tayyorlashning o'zi bo'lmaydi.

Bayram arafasida ana shunday zahmatkash insonlardan biri, uzoq yillardan buyon noshirlik kasbini ardoqlab kelayotgan Manguberdi aka Sa'dullayev bilan uchrashdik, (darvoqe, u kishi taniqli adibimiz Shukur Sa'dullaning o'g'li bo'ladilar) bolalik xotiralariga oshno tutindik, kamyob ismlari tarixi bilan qiziqdik:

Noshirlikka baxshida umr

-Yozuvchi Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» nomli romani yangi e'lon qilingan va o'quvchilar qo'lida qo'lma-qo'l bo'lgan yillarda tug'ilgan ekanman. Dadam adabiyot ixlosmandi emasmilar, birinchilardan bo'lib bu kitobni o'qib chiqibdilar. Roman qahramoni Jaloliddinning mardligi, jasurligiga havas qilib, menga uning ismini qo'yishni niyat qilib yurgan kunlarining birida do'stlari Mirtemir domla bilan uchrashib qolishibdi.

-Yaqinda o'g'ilchalik bo'ldim. Unga Jaloliddin deya ism qo'ymoqchiman, deb qolibdilar Mirtemir domla dadamning niyatlaridan bexabar...

«Jaloliddin bo'lmasa, Manguberdi-da», deya menga shunday ism qo'yibdilar dadam.

XISLATLAR RO'YXATI ADABIYOTMI.. HISOB?

8-sinf gacha faqat adabiyot faniga qiziqardim. Dadamning ta'sirida adabiyotchi bo'lishim ham mumkin edi. Lekin maktabimizga yangi matematika o'qituvchisi keldi-yu, adabiyot faniga qo'ygan mehrim bo'lindi. Ustoz bizni matematika faniga juda qiziqtirib qo'ydi. Buni payqagan dadam ham bir kuni meni yonlariga chorlab:

-O'g'lim, hozir texnika asrida yashayapmiz. Adabiyot bilan istagan vaqtingda shug'ullanaverishing mumkin. Menimcha, aniq fanlar bilan shug'ullanganing ma'qulroq, deya maslahat berdilar. Men ham hech ikkilanmay hujjatlarimni Nizomiy nomidagi pedagogika institutining fizika-matematika fakultetiga topshirdim. O'qishni muvaffaqiyatli tamomlaganim bois, meni shu dargohda ishga olib qolishdi. Shunday kunlarning birida «O'qituvchi» nashriyatida bo'lim muharriri bo'lib ishlab kelayotgan Ibrohim aka Ahmadjonov institutimizga kelib, bizga yaxshi mutaxassislar kerak, debdilar. O'tkazilgan savol-javoblar natijasiga ko'ra, 11 nafar yosh mutaxassislar orasidan meni va yana bir do'stimni tanlab olishdi. Avvallari ham dadamning topshiriqlari bilan nashriyotlarga tez-tez borib turar va bunday joylarda ishlashni orzu qilib yurardim. Shundanmi, bu taklifga bajon-u dil rozi bo'ldim. Ustozlarim Ibrohim aka Ahmadjonov, Fayrat aka Obidov, Madamin aka Ibrohimov, Abdurahmon aka To'raxonov va boshqalardan noshirlikning sir-u sinoatlarini o'rgandim. Orada 2 yilcha muddat Oliy ta'lim vazirligining darsliklarni nashrga tayyorlash bo'limida ishlab keldim. 1991- yildan buyon mana shu dargohda, «O'zbekiston» nashriyatida o'quv adabiyotlar bo'limiga mudirlik qilib kelyapman.



TARSAKINING YORDAMI

Bolaligimda juda to'polonchi, o'yinqaroq bo'lgan ekanman. Azbaroyi sho'xligimdan 5-6 yoshimda tog'ning tepasidagi g'ildiraklariga tosh tirab qo'yilgan yuk mashinasining chiroqlarini yoqaman deb pastlikka qarab haydab yuboribman. Chiroq yoqish uchun g'ildiraklar tagidagi toshlarni olishning nima hojati borligini haligacha tushunolmayman. Baxtli tasodif tufayligina omon qolgandim o'shanda. Maktabga chiqib ham quyulmabman chog'i, 1-sinfda Qodira opa ismli o'qituvchimiz dars paytida gaplashib o'tirganim uchun yuzimga bir shapaloq urganlar. Og'rishga unchalik og'rimagan-u, lekin menga yaxshi saboq bo'lgan. Shu-shu og'ir-vazmin bolaga aylanganman.

Dadamning ta'siri bo'lganmi yoki buvimning kechalari so'zlagan ertag-u rivoyatlari sababmi, kitobga mehrim bo'lakcha edi. Uyimizdagi kitoblarning deyarli barini o'qib chiqqanman. Buni sezgan ustozlarim meni sinfimizda har chorakda bir chiqadigan devoriy gazetaga mas'ul qilib qo'yishgan.

lekin yozganlari 12 yoshli qizaloq uchun yomon emas, nazarimda. Sizlar ham bir o'qib ko'ringlar-a:

XAYR, MAKTAB!

Mana so'nggi qo'ng'iroq,
Sadosi biram yangroq.
Aka-opalarimiz,
Qalbida biroz titroq.

Bugun turishar ular,
Katta yo'lning boshida.
Yurtboshimiz parvona,
Har birining qoshida.

Shaxdam qadam qo'yinglar,
Kelajak tomon.
Faxrlansin sizlardan,
Hur O'zbekiston!



Nargiza OTABEKOVA.

NABIRAM SHOIRA BO'LSA...

Shunday bo'lishini xohlamaydigan bobolar topilmasa kerak, nazarimda. Jumladan, men ham. Qizim bolalar shifokori, o'g'lim jamiyatshunos. Dadamning ham, mening ham kasbim davomchilari emaslar. Lekin endigina 6-sinfda tahsil olayotgan nabiram Nargizada adabiyotga havas bordek. O'zicha allanimalarni qoralab yuradi. Biznikiga kelsa, salom-alikdan so'ng to'g'ri kutubxonamizga kirib ketadi. Kitobni ham shunchaki o'qimaydi. O'qiganlarini tahlil qilishga, mag'zini chaqishga, xulosalar chiqarishga urinadi. Tushunmagan joylari bo'lsa, «nega unday, nega bunday», deyaverib odamni charchatib ham yuboradi. Uning qoramalarini she'r deb atash mumkinmi, yo'qmi, bilmadim-u,

Kitob nashri juda mashaqqatli ish. O'quv darsliklarini nashrga tayyorlash esa undan-da mushkulroq. Noshirlardan qanchalar sabr-toqat, bilim va mahorat talab qilishini bu kasbning nonini yegan insonlarga yaxshi bilishadi.

Demak, Manguberdi akaga nisbat qilinadigan kamtarin, zahmatkash, bag'rikeng kabi fazilatlar ro'yxatini bilimli, sabr-bardoshli, tajribali kabi xislatlar bilan davom ettirishga haqlimiz. Aks holda bu sohada qariyb 40 yildan buyon ishlayotgan bo'larmidilar?!

Farzandlarimizga ziyo ulashayotgan, ularning ilmi, zukko bo'lib kamol topishlariga o'z hissalarini qo'shib kelayotgan bunday fidoyi insonlar bor bo'lsinlar.

FERUZA suhbatlashdi.

Aziz bolajonlar! Ta'til kunlari boshlanib, bo'sh vaqtlaringiz ham talaygina bo'lib qolgandir-a? Endi mazza qilib dam olasiz. Kimdir yoz oylarida oromgohlar qo'yniga shoshilsa, kimdir ota-onasiga yordamlashadi, qaysidir tengdoshingiz kitob o'qisa, yana biri turli to'garaklarga qatnay boshlaydi. Xullas, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishga shoshilishadi. Biz, tahririyat xodimlari ham sizlarni zeriktirib qo'ymaslikka harakat qilamiz. Yoz bo'yi biz bilan bo'lasiz, degan umiddamiz. Sizga tanish bo'lgan «Mening bo'sh vaqtim» rukniga kelgan maktublar anchagina yig'ilib qolgandi. Quyida respublikamizning turli viloyatlaridagi tengdoshlaringizni bo'sh vaqtlarida nimalar bilan shug'ullanishayotgani bilan tanishasiz. Sizlar ham bizga maktub yo'llang. Esingizda bo'lsin, har bir maktub tahririyat xodimlarining nazaridan chetda qolmaydi.



OQ KO'NGIL QIZNING RASMINI CHIZDIM

Mening ismim Shahlo. Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumanidagi 10-maktabning 6- «B» sinfida tahsil olaman. Bo'sh vaqtlarimni rasm chizish, she'r yozish bilan o'tkazaman. Tumanda bo'lib o'tgan maktablararo rasmlar tanlovida «O'zbekiston manzarasi» rasmim bilan ikkinchi o'ringa sazovor bo'lganman. She'rlarim tuman gazetasi va «G'uncha» jurnalida ham chop etilgan. «Tong yulduzi»ga esa o'zimga yoqqan «Oq ko'ngil qiz» deb nomlangan rasmimni yuborayapman.

Shahlo SUNNATILLAYEVA.

MATEMATIKA AQL GIMNASTIKASI



Men matematika faniga juda qiziqaman. Ba'zi o'quvchilar bu fanni eshitishlari bilan g'alati holatga tushishlari tabiiy. Matematikadan bizga Nigora opa Teshayeva saboq beradilar. Chet tillaridan fransuz tilini o'rganishga ishtiyoqim baland. Turli xil masala-yu misollar yechish bilan birga rasmlar chizishga ham qiziqaman. Quyida sizlarga chizgan rasmimdan namuna jo'natayapman. Chizgan rasmimni esa «Quvnoq dars» deb nomladim.

Dilnoza ANVAROVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 17-umumiy o'rta ta'lim maktabning 6- «E» sinf o'quvchisi.

TIKISANI YOQTIRMAYMAN



Men turli ko'ylaklar modelini yaratishga qiziqaman. Bo'sh vaqtlarimda ham zamonaviy ko'ylaklar modelini chizaman. Keyingi paytlarda milliylikka ko'proq e'tibor berilayotgani bois, men milliy matoimiz bo'lgan atlas, adraslardan ham zamonaviy ko'ylaklar tikish mumkinligini tushundim va ana shunday ko'ylak eskizlarini yaratdim. Boshqa qizlar model chizish bilan birga tikishni ham yoqtirishadi. Men esa aksincha, negadir ko'ylak modelini yarataman-u, tikishga kelganda... Balki biroz vaqt o'tib, tikishga ham qiziqib qolarman.

Hosiyat SOHIBOVA, Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani, 6-sinf o'quvchisi.



ERTAKLAR-YAXSHILIKKA YETAKLAR



Mana shunday ajoyib naql hammamizning ko'glimizga o'rnashib qolgan. Ertak eshitib, o'qib katta bo'lgan inson kelajakda xudbin, g'arazgo'y bo'lmas ekan. Men eshitgan yoki o'qigan ertaklarimning qahramonlarini rasmimni chizishga harakat qilaman. Quyida esa barchaga taniqli bo'lgan ertak qahramonlarining rasmlarini yuborayapman. Ularni qaysi ertakka tegishli ekanligini topish sizlarga havola.


Oyzoda MAMAYEVA, Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumani.

Singlimizni birov xafa qilib ko'rsin-chi, a, aka?!
- Hmm...

BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz gazetamiz sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga ma'lum qiling. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib yoziladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi.

Maqsadimiz: Bilimli bo'ling, chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.





Ushbu ruknimizning navbatdagi mehmoni, aniqrog'i, mezboni sevimli adibimiz, O'zbekiston Xalq yozuvchisi Hakim Nazir bo'ladilar. «Mezboni» deyishimning boisi bor, albatta. Sevimli adibimiz bilan diydorlashish, ertaga nishonlanadigan jurnalistlarning kasb bayramlari bilan qutlash niyatida uylariga yo'qlab borgandik. Yoshlari bir joyga borib qolsada, hamon tetik adibimizning o'zlari menga peshvoz chiqdilar. «Tong yulduzi»dan kelganimni bilgach esa chehralari yanada yorishib ketdi. Chunki ular ham jurnalistika, yozuvchilik olamiga kirib kelishdagi ilk tetapoya qadamlarini aynan mana shu gazeta tahririyatida qo'ygan ekanlar-da. O'sha damlar yodlariga tushib ketdi chog'i, hali maqsadimni aytmasimdanoq bolalik xotiralariga chekindilar.

HAKIM NAZIR BOBOMIZ

U yer - bu yerda chiqib yurgan maqolalarim, hikoya va ocherklarim sevimli yozuvchimiz Abdulla Qahorning ham

Bolalikka sodiq insonlar

-Bolaligim Toshkentning Beshyog'och dahasidagi Arpapoya mahallasida ko'pchilik bolalar orasida o'tgan. Sababi, onam Malika otin mahallamizdagi eng ziyoli, o'qimishli ayol bo'lganlari uchun ham ko'pchilik farzandiga saboq berishlarini iltimos qilib kelardi. Shunda onam o'z xonadonimizda maktab ochib, mahalla bolalarini o'qita boshlaganlar. Men ham ular bilan birga saboq olganman. 7-8 yoshlarimda o'qish-yozish bemaolol qo'limdan kelib qolgan. Otam kosib bo'lganlar. Meni ham 14 yoshimdan artelning bolalar bo'limiga ishga berishgan. U yerda asosan savodi bo'lmagan bolalar mehnat qilishardi. O'qish-yozishni, kosibchilikni bilganim uchunmi, meni ularga boshliq qilib qo'yishgan. Men bolalarga faqat ish o'rgatibgina qolmay, hisobdan, adabiyotdan ham saboq berib yurardim. O'zim ham kunduzi ishlab, kechqurun ishchi-yoshlar maktabida saboq olardim. Kitob o'qishga, o'qigan kitoblarim, eshitgan voqealarim haqida hikoyalar, ocherklar yozishga qiziqardim. Bu ishtiyoq meni bolalar nashri bo'lmish «Lenin uchquni» (hozirgi «Tong yulduzi») sari yetakladi va 15 yoshimdan boshlab tahririyat ishlariga ko'maklashib yurdim. O'sha paytlarda gazetaga muharrirlik qilgan odamning ismi-sharifi yodimdan ko'tarilibdi. Lekin Asom Isxoqov, Ziyo Aminovni, gazetaning mas'ul kotibi Sanjar Tillani yaxshi xotirlayman. 18 yoshga to'lganimda meni ishga qabul qilishdi. Dastlab maktab, keyinchalik adabiyot bo'limini 10 yil davomida boshqarib bordim. 1934-yilda «Ergash» nomli ilk hikoyam gazeta yuzini ko'rdi. Buni qarangki, sho'xligi, o'yinqaroqligi bois ikkichilar safiga tushib qolgan, ammo xatosini o'z vaqtida tushunib, do'stlari, ustozlari ko'magida yana a'lochilar qatoriga chiqib olgan Ergash ismli bolakay haqidagi o'sha hikoyam qo'lyozmalarim orasida saqlanib qolgan ekan.

e'tiborini tortibdi. Ijodimni kuzatib borgan adibimiz menga katta ishonch bildirdilar. Ustozlik qilib, maslahatlar berib bordilar. So'ngra, radioeshittirishlar qo'mitasiga ishga o'tib, 12 yil davomida bolalar bo'limini boshqardim. Bu paytga kelib yozgan hikoya va ocherklarim soni ancha ko'payib qolgandi. Ko'pchilik kitob chiqarishni maslahat berardi. Men esa

o'tagan «Tong yulduzi»dan behad minnatdorman...

Suhbatimiz shu yerga yetganda ayvondagi divanda o'tirgan keksa onaxon menga qarata: «Ona qizim, aybga buyurmaysiz, sizga qaray olmadim. Oyoqlarim o'zimga bo'ysunmay qolgan-da...», dedilar hijolat bo'lib.

-Bu kishi mening umr yo'ldoshim Faridaxon xolangiz bo'ladilar,-deya tanishtirdilar Hakim aka. So'ngra: -Ha, endi keksalik-da, onasi. Sizga qolsa shunday o'tirarmidingiz?-deb onaxon-ga tasalli berib qo'ydilar. Ular orasidagi mehr-oqibatni, hurmat-izzatni ko'rib, to'g'risi, juda havasim keldi.

Hakim Nazirning boshqa yoshlarga, hatto ba'zi bir keksa yozuvchilarga qaraganda yorqinroq asarlar yozishiga, yozuvchilikka tez sur'at bilan ilgarilashiga sabab... o'z materialini, o'zi tasvir etmoqchi bo'lgan hayotni yaxshi bilishidir.

Abdulla QAHHOR

Hakim Nazir - ustoz yozuvchi. U O'zbekistonda bolalar uchun hikoya va qissalar yozishni birinchi bo'lib boshlab berganlardan... Uning kitoblari bir necha avlodlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Asqad MUXTOR



kitob chiqarishga shoshmadim. Sababi, yozganlarimdan o'zimning ko'nglim to'lmadi. 1948-yilga kelibgina «O'zdamnashr»da «Qishloqdagi jiyanlarim» nomli ilk kitobcham chop etildi. «Kitob chiqarishga shoshilmay yaxshi qilibsan. Mana endi hikoyalaring yaxshi, pishiq yozilibdi», degandilar Abdulla aka meni samimiy qutlab. Ularning maqtovlaridan ruhlanib, yanada ko'proq yoza boshladim. «Besh baho», «Bir to'p g'o'za», «Oq fotiha», «Baqaloq bilan chaqaloq», «Erkatoylarim» kabi 50dan ziyod kitoblarim, «Yonar daryo», «Ko'korol chiroqlari», «Tohir va Zuhra» kabi qissalarim chop etildi. 2000-yilda «Najot» hamda «Dadamni topib beringlar» nomli qissa va kitoblarim o'quvchilarim qo'liga yetib bordi.

Yozuvchi bo'lib shakllanishimda hayot maktabini

Biz yoshlar Hakim akadan nafaqat yozishni, balki sermazmun umr kechirishning sirlarini, insonlarni qadrlashni, saranjom-u sarishtalikni, qo'yingchi, hayot saboqlarini ham o'rganishimiz lozimligiga yana bir bor amin bo'ldim.

-O'g'lim To'lqin - muhandis, katta qizim Yorqinoy - oliy ma'lumotli tarbiyachi, Oqila - bolalar shifokori, Muborak va Oydin - telestudiyada ishlashadi, -deya 5 nafar farzandi, 30 dan ziyod nabira va 20dan ortiq abiralari haqida faxr va samimiyat bilan so'zlashlaridan ularga ham mehrlari bo'lakcha ekanligi shundoq sezilib turardi. Adibimizning «Tong yulduzi» muxlislariga, bolajonlarimizga bildirgan niyatlari ham xuddi asarlarining tili kabi sodda, ravon va samimiy bo'ldi: Bolajonlarni o'ylaganimda dilim yayrab, yoshligim qaytib kelganday o'zimni bardam sezaman. Go'yo bir yangi, gashtli olam ichiga kirib qolganday ruhlanib ketaman. Ana shu ruhiy ko'tarinkilik menga kuch, ilhom ato etadi.

Maslahatim - odamlarga kerakli bo'lib yashashni o'rganing. Qo'pol, manman, loqayd bo'lmang. Sizlarni faqat sirtqi ko'rinishdagina emas, aql-idrok, xulq va odobda, yurish-turishda va muomalada ham chiroyli ko'rgim keladi.

Kitobni oftobga qiyos etishlari bejiz emas. Bolalik davringizning har oni, har daqiqasini g'animat bilib, bilimlar hazinasini qancha ko'p g'amlasangiz, kelajakda o'zingizga ham, o'zgalarga ham shuncha ko'p foyda keltiradi...

O'zbek adabiyoti ravnaqiga ulkan hissa qo'shayotgan, 90 bilan to'qnashib, 100 yosh sari yuzlangan otaxon yozuvchimiz bilan yangi-yangi kitoblaringiz, qissalaringiz orqali ko'rishguncha, deya xayrlashdik.

Feruza JALILOVA.

Qadrli Hakim Nazir! Sizning X.K.Andersa nomli «Faxriy diplom» bilan mukofotlanganingiz... adabiyotdagi xizmatlaringiz Xalqaro miqyosda yuksak e'tirof etilganiga ravshan dalildir. Biz sizni eng ko'p o'qiladigan yozuvchilarimizdan deb bilamiz. Siz o'zbek hamda ko'pmillatli bolalar adabiyotining hormas targ'ibotchisiz.

Sergey MIXALCOV



«Bekzodjon yoshligidanoq hamma narsaga qiziquvchan, xushchaqchaq, ko'ngli ochiq bola. U juda saxiy, narsalarini hech kimdan qizg'anmaydi. Rasm chizishni, musiqa tinglashni yaxshi ko'radi. Bizning kichkina do'stimiz 5 yoshda bo'lishiga qaramasdan Uchtepa tumanidagi 411-bog'chaning a'lochi tarbiyalanuvchilaridan ekan. Bunga Bekzodjon Yunusov bilan bo'lgan suhbatimiz davomida amin bo'ldik».

-Bekzodjon, kimlarni «a'lochilar» deymiz?

-Oyisini, dadasini, buvisini, bog'cha opalarini so'zlariga quloq soladigan, o'yinchoqlarini sindirmaydigan, kiyimlarini iflos qilmaydigan, do'stlarini ranjitmaydigan,

odobli, ko'p biladigan bolalar a'lochilardir. O'zim ham hamisha shunday bola bo'lgim keladi.

-Bog'chada nimalarni o'rganayapsiz?

-Tarbiyachi opalarimiz Nafisa Adhamova, Natalya Yuryevna bizga sanashni, yozishni o'rgatayaptilar. Yanachi, bog'chamizda turli qo'shiqlar o'rganamiz, sport mashqlarini bajaramiz.

-Buvilar yaxshi bo'lsa, oyilar ham yaxshi bo'ladi, deysizmi?

-Ha, albatta. Mening buvijonim shirinso'z, juda mehribon. Ularni bir kun ko'rmasam, sog'inib qolaman. Har kuni bog'chadan qaytayotganimizda oyim

Bog'cham - ovunar joyim

bilan buvimlarnikiga kirib o'tamiz. Ular bizni bag'rilariga bosib, shirinliklar bilan siylaydilar. Ko'pincha o'ylanib qolaman, oyijonim ham xuddi buvimlarga o'xshaydilar-a, demak buvimlar yaxshi bo'lganliklari uchun oyijonimni ham hamma yaxshi ko'rkanlarda, a.

BO'RI QUYONGA YETA OLMASIN



-Chizgan rasmingizni «Bo'ri quyonga yeta olmasin», - deb nomlabsiz, agar vetib olsa, nima bo'ladi?

-Yomon bo'ladi. Axir quyonchani yeb qo'yadi-da. Shuning uchun ularning o'rtasiga kattakon daraxtning rasmini chizdim. Bo'ri daraxtni aylanib o'tgunicha, quyon tezda bekinib oladi. Bilasizmi, men yana quyoshni rasmini ham chizishni yaxshi ko'raman. Mayli, bu gaplarimni yozmang, bo'lmasa do'stlarim juda kichkina bola bo'lsa kerak, dumaloq quyoshni rasmini kimam chiza olmaydi, deya kulishlari mumkin.

-Uyda qiz bola bo'lmaganligi mushlarini bajarayapsizmi?

uchun uy yu-

-Yo'q, o'g'il bolalar a'lochi bo'lishi uchun uylarni supurib-sidirishni, pollarni yaraqlatib artib qo'yishni ham bilishlari kerak. To'g'risi, singlim bo'lishini juda xohlayman. Ammo uyimizda qiz bola bo'lganida ham baribir oyijonimga ko'maklashaverardim.

Ha, so'zi bilan ishi bir Bekzodjonning gaplarini tinglar ekanmiz, "Bola boshdan, aql yoshdan", degan ibratli maqolni esladik. Uning murg'ak qalbida bir olam orzular yashaydi. Bizga «xayr», deya qo'l silkitib turgan jajji tengdoshingizga, hamisha kamoling ko'rkam bo'laversin, degimiz keldi.

Suhbatdoshlar: Shohsanam NURMATOVA, Temur A'ZAM o'g'li.

BUVIJONIM

Buvijonim - yorug' yulduzim,
Yuzingizdan nur yog'iladi.
Bizni quchib yayrab ketasiz,
Dilimizni bahor etasiz.
Uyimizning fayzi o'zingiz,
Yoningizdan jilgim kelmaydi.
Qo'l ochasiz duoga doim,
Yoningizda dadam va oyim.
Mehnat qilib hech tolmanim,
Shirin zabon buvijonimsiz.
Oppoq xarir ro'mol o'raysiz,
Dilimizni dildan so'raysiz.



Hilola MAHMUDOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 40-
maktabning 7-sinf o'quvchisi.

DADAJONIMGA

Dadajonim quruvchi,
Tog'-u toshda yuruvchi.
Ko'rkam uylar qursam deb,
Obdon o'ylab ko'ruvchi.

Kiyimlari chang bo'lsa,
Darrov yuvib beraman.
Ishdan charchab kelganda,
Choylar quyib beraman.

Maqtanaman o'qishdan,
Ko'rsatib baholarim.
Ko'ngli to'lib ishimdan,
Balli, der sen lobarim.



Zilola JAMILOVA,
Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi
322-maktabning 5- «A» sinf o'quvchisi.

Men 5-sinf o'quvchisiman. Kattaqo'rg'on shahrining Ingichka qo'rg'onida yashayman. Gazetangizda chop etilayotgan «Sen samolyot hikoyani o'qib, Abdumajidga nimaga aytgim keldi. Chunki asar qahramoni o'xshatdim.

Muqaddas do'stlik

haydagin, bolam!" nomli davomli uch kun maktabga bormaganimni Nafisaning holatini o'zimga

Bir kuni sinfdosh dugonalarim bilan tanaffus paytida rangli suratlari bor qiziqarli ertak kitobni birgalashib o'qib o'tirgan edik. Dars boshlanib, o'qituvchimizning tepamizga kelganini sezmay qolibmiz. Shoshganimdan kitobni yopaman degan edim, Visola qo'li bilan bosib turgani bois uning varag'idagi rangli rasmi bor pastki qismi yirtilib ketdi. Shunda Iroda nimaga kitobimni yirtiding deya mening yelkanga turtib yubordi. Visola bo'lsa indamasdan darrov joyiga borib o'tirdi.

UCH KUN DARSLARGA BORMAGANDIM



Men, men, - ovozim chiqar-chiqmasdan jahli chiqqan o'qituvchimiz yuzimga bir tarsaki urib yubordi. Qo'lining orqa tarafi bilan urgani bois barmog'idagi kattakon ko'zli uzugi yuzimni tilib, ko'zimdan o't chiqib ketdi. Qo'llarimni yuzimga bosganimcha yig'lab yubordim. O'rnimdan dast turdim-da, sumkamni ham olmasdan darsdan chiqib ketdim. Kechga tomon dugonalarim Iroda va Farida sumkamni uyimizga keltirib berishdi. Yaxshiyam ota-onam ishda edilar, ular bugungi voqeyadan bexabar qolishdi. Kechqurun oyimning so'rog'iga javoban yuzimni o'tin tilib oldi, dedim. Ertasiga maktab formamni kiydim-da, tushga yaqin sport maydonchamizda aylanib-aylanib qaytib keldim. Bilasanmi, Abdumajid, darslarga bormaganim uchun biram zerikdimki, asti qo'yaverasan. Uch kun o'tib, qardron partamda o'tirib, darslarni tinglash baxtiga muyassar bo'ldim. Chunki kecha butun sinfim meni darsga chorlab, uyimizga kelgan edi-da. Nafisani o'rtoqlari darsga chaqirishmabdi. Aytgin Abdumajid, ular Nafisani maktabga olib borishsin. Men unga juda ham achinayapman. Axir hamma ham bilmasdan ayb ish qilishi mumkin-ku...

Maktabimni va ism-sharifimni yozmadim. Chunki ustozimizni juda yaxshi ko'raman. Ularni allaqachon kechirganman.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

-Buvi, buvijon, o'zingiz aytib bering. Siz chiroyli qilib aytasiz.

Buvim esa tez-tez yurib ketaverdilar.

-Buvi-i-i!

-Nima deysan? Bo'laqol tezroq. Qachondan beri ko'chadamiz. Bunaqada qachon yetib olamiz Hoji buvingnikiga?



-O'zingiz aytmayapsiz-ku!

Men yana labimni burib, velosipedimni tormozini bosib, ko'chada turib olaman. Buvim esa oldimga chopib keladilar.

-Chetroqqa o'tib, soyadan yur. Qara, boshingdan oftob o'tib ketyapti.

Men jim turaveraman. Buvijonim esa meni achom-achom qiladilar.

-Nima deysan?

Men ularning ziraklarini tortib, quloqlarini ushlayman.

-«Quloqlari burishgan»ni aytib bering.

-Quloqlari burishgan, Peshonasi tirishgan.

Bu -kim?

-Buvim.

-Og'zida so'lagi,

Kir-chir ko'ylagi.

Bu-chi?

-Abdubosit.

-Yo'q, bu sensan. Darrov ko'zingdan yosh oqib, burningdan sizib chiqyapti sarg'ayib!

YOZILMAGAN KITOB

Umida ABDUAZIMOVA.

Buvijonim anor o'ralgan sochiqqa yuz-ko'zlarimni artib qo'yadilar.

-Hoji buving «oy borib, omon kel», deb bizga osh-ovqat solingan kosani o'rab berib yuboradigan sochiqlari bu. Yigirma-o'ttiz yildan beri ayab, ishlatib keladilar.

-Voy-bo', dadamdan ham katta ekan-ku!

-Bu sochiq Hojiakbar amakingdan ham katta. Hojiakbar amaking besh oyliyida buvang askarlikka ketgandi.

-Armiyagami?

-Ha. Voy bilag'on bolam-ey! Institutni bitirganlarni bir yilga xizmat qilgani yuborishardi. O'shanda ketaturib: «Meni kuzatgani

chiqmanglar. Yaqin

joyda xizmat

qilaman. Har hafta

turaman», degandilar.

Naq o'n yetti kundan

yetib keldik», deb

Xabarovskdan xat

Hozirgilarga mazza.

yurtda xizmat

xohlashsa borishadi,

yo'q. Armiyaga

paytlarda majburiy

«falonchining tobuti

degan vahimali

turishini

aytmaysanmi?

nomi ham armiyadan temir sandiqqa solib kelingan yigitning nomiga qo'yilgan...

Buvim yana jim bo'li-ib qoldilar. Bilasiz, bunday jimliklarini men sira-sira yaxshi ko'rmayman. Chunki ko'zlari jiqqa yoshga to'lib turadi-da! Ularni yana gapga solishim kerak.

-O'zingiz sochiq deb turib, armiyadan gapirib ketasiz.

-Ha-ya! Sochiq... bu sochiqni buvingga Marg'uba opoqing olib kelgan ekan.

Olib kelgan-u, keyingi haftada buyragidan tosh oldirib, o'li-ib qolgan ekan.

-Tosh oldirsa o'ladimi?

-Ajali yetsa, o'ladi. Ammo odamlarimiz ham ko'p sodda-da. Operatsiya qilingan ayol oldiga ham tuqqan onasini soqchi qilib qo'yishadimi?!

«Oyijon, chanqadim, suv bering» desa, muzdakkina ekan deb, bir banka qatqini ichishiga yo'l qo'yib beribdi. Katta mehr ham ba'zida dushmanlikka aylanarkan. Odatda operatsiya qilinganlarga limonni yalatib, nam latta bilan og'zini artib, chanqog'ini qondirib turishardi. Qari ona buni tushunmagan... Shunday qilib, Marg'uba opoqingning to'rt qizi bo'zlab qolaverdi. Yosh o'ladimi,

qarimi, Ollohning ishi ekan. Marg'uba opoqing Abdumannon opoqdodangning uzoq vaqtdan beri kasal yotganidan siqilib, nihoyat yana yetti yil yashasalar, katta qizimni uzatib olardim, derdi yig'lab. Buni qaraki, o'zi bir haftalik xastalikka uchrab, olamdan o'tib ketdi. Abdumannon opoqdodang esa qizlarini yotgan joyida uzatib,

hatto beshik to'ylarigacha o'tkazib, olamdan o'tdi. Hoji buvim opoqimni eslab turishga saqladilarmi sochiqni?

-Ha, Hoji buving buyumlarni qadrlaydi. Murod buvang esa uzatilgan qizlarini uyda olib o'tirmaslikni o'ylaydilar. Oh, adajonim, adajonim-a! Juda sog'inib ketaman shunaqa paytlarda

adajonimni.

-Qanaqa paytlarda?

-Sening aqlli gaplaringni, ko'p beradigan savollaringga javob berishdan zerikib ketadigan paytlarda-da! Agar ko'ngillari bo'sh bo'lganda, bunday kunlarni ko'rib, shunday boyvuchcha buvi bo'lib o'tirmasdim.

-Nega?

-Nega bo'lardi. Adajonim ishdan kelib, charchab ketdim, o'chiringlar radioni, televizorni... derdilar.

Hojiakbar amaking uxlab qolsa ham qo'limga ko'tartirib, Mastura xolangni qo'shib uyimga jo'natardilar.

-Uyimga borib, ovqatlan. Qaynona-qaynotang umid bilan kelin qilgan. Ering armiyada bo'lsa, hademay keladi. Men xomush izimga qaytardim. Qo'limda bolam, singlimning qo'lida biz uchun suzilgan, shu sochiqqa o'ralgan issiqqina osh-ovqat. Ehtimol, otajonim tushgan uyimga jo'natavermaganlarida, allaqachonoq shu uyimga qaytib kelib, o'tirib olgan bo'lardim. Chunki menga Hoji buvingning bag'ridek issiqlik, erkalgimni ko'tarishlik yo'q edi-da u uyda!.. Hoji buving esa qayta-qayta sochiqni qaytarib olib kel, sizlarnikida yo'qolib ketmasin, deb tayinlardilar. Mening otajonim mehri qattiq, qahri qattiq bo'lib turardilar. Ammo sog'inchdan jilmaygan ko'zlariga yosh to'lganini necha marta ko'rganman.

SOCHIQ

kelib

Qayoqda!

keyin «Endi

kelgan.

O'zimizning qilishadi. Yana xohlashmasa borish u

edi. Tez-tez kelibdi»,

gaplar tarqalib

Guzarimiz

nomi ham armiyadan temir sandiqqa solib kelingan yigitning nomiga qo'yilgan...

Buvim yana jim bo'li-ib qoldilar. Bilasiz, bunday jimliklarini men sira-sira yaxshi ko'rmayman. Chunki ko'zlari jiqqa yoshga to'lib turadi-da! Ularni yana gapga solishim kerak.

-O'zingiz sochiq deb turib, armiyadan gapirib ketasiz.

-Ha-ya! Sochiq... bu sochiqni buvingga Marg'uba opoqing olib kelgan ekan.

Olib kelgan-u, keyingi haftada buyragidan tosh oldirib, o'li-ib qolgan ekan.

-Tosh oldirsa o'ladimi?

-Ajali yetsa, o'ladi. Ammo odamlarimiz ham ko'p sodda-da. Operatsiya qilingan ayol oldiga ham tuqqan onasini soqchi qilib qo'yishadimi?!

«Oyijon, chanqadim, suv bering» desa, muzdakkina ekan deb, bir banka qatqini ichishiga yo'l qo'yib beribdi. Katta mehr ham ba'zida dushmanlikka aylanarkan. Odatda operatsiya qilinganlarga limonni yalatib, nam latta bilan og'zini artib, chanqog'ini qondirib turishardi. Qari ona buni tushunmagan... Shunday qilib, Marg'uba opoqingning to'rt qizi bo'zlab qolaverdi. Yosh o'ladimi,



(Davomi bor).

Kamola Xoliqova Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tugilgan. Ayni vaqtda tumandagi 6-umumta'lim maktabining 8-sinfida tahsil olmoqda. U tabiatning si'f-u sinoatidan hayratga tushib, goho gullar atridan zavqqa to'lib, ba'zan yoshlik orzulari osmonida uchib, qo'yingki, tonglarni boshlab kelayotgan tunlar bag'rida tinimsiz ijod qilmoqda. Bir necha bor Surxondaryo viloyatida bo'lib o'tgan «Nafosat» ko'rik-tanlovlarida faxrli o'rinlarni egallagan Kamolaxonga ijodda yuksak parvozlar tilaymiz.

Tengdoshlaring ijodi

OY NURLARI

To'lin oy ham chiqibdi, qarang,
Ko'kda yulduz porlabdi shodon.
Tun zulmati ko'rinar arang,
Zarrin nurlar zaminda ko'rkam.


Kechalar ham kunduz bo'ladi,
Ko'tarilib ko'k uzra nurbosh.
Tun eshigin ochib beradi,
Oy o'rnini egallar quyosh.

MAKTAB

O'zi sevgan dargohga,
Har kun o'tlanmoq istab.
Ukam so'rar yoshini,
Maktabga bormoq istab.

Onam: «Hali bir yil bor»,
Deb chimirar qoshini.
Bir kun o'tmasdan yana,
Ukam so'rar yoshini.

Ilm inson qalbiga,
Bag'ishlaydi nur, ziyo.
Asli o'zi maktabdan,
Boshlanadi keng dunyo.
Kamola XOLIQOVA.



Oramizda san'atsevar, hunar o'rganishga astoydil bel bog'lagan tengdoshlarimiz juda ham ko'p. Ulardan biri Muxlisa Qodirova Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi Ravalliq mahallasida tavallud topgan. U bog'cha yoshidayoq raqsga o'zgacha mehr qo'ydi. Bog'chadagi biron-bir tadbir Muxlisaning jo'shqin raqslarisiz o'tmasdi. U «Tanovor», «Mustahzod», «Xorazm lazgisi»ga xirom aylab, barchani o'ziga rom qilib qo'yardi. Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Yunus Rajabiy nomli viloyat musiqali drama teatrida bo'lib o'tgan konsertda qatnashganida, Muxlisa atigi 5 yoshga to'lgandi. O'shanda viloyat hokimi unga qo'g'irchoq sovg'a qilgan, bu esa yoshgina qizaloqning kamolotidan nishona edi.

Bugungi kunda Muxlisa faqat raqs tushish bilan chegaralanib qolmay, yumshoq o'yinchoqlar yasash, rangli iplar yordamida to'qish, zardo'zlik, munchoqlar bilan bezash singari hunarlarni ham puxta o'zlashtirib olgan. Uning ijodxonasini ko'zdan kechirar ekanman, turli -tuman ko'ylaklar bilan yasatilgan qo'g'irchoqlarni, xuddi tabiiydek qilib yasalgan gullarni ko'rib, hayratimiz yanada oshdi. Uning ijodxonasidan Zulfiyaxonim portreti, Hamid Olimjonning «O'rik gullaganda» nomli she'riga ishlangan kompozitsiya bilan bir qatorda badiiy kitoblar ham o'rin olgan. Bu kitoblarni ko'rib, Muxlisa adabiyotga ham befarq emasligini tushunib yetdim.

- Ona tabiatning bizlarga yetkazayotgan in'omlari



CHIZMADAGI YONMA-YON HARFLARDAN SO'ZLARNI O'QISH BILAN JUMBOQNI TOPING.

QANI, KIM KO'P SO'Z TOPA OLAR EKAN?

Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi Amir Temur nomli 8-maktabning 9- «A» sinf o'quvchisi.

ko'p. Yaratayotgan yangi ijodiy rasmlarim ranglarini tabiatdan olaman, deydi Muxlisa. U yurtimiz hunarmandlari orasida o'tkazilgan «Tashabbus-2006» ko'rik-tanlovida «Eng yaxshi hunarmand» yo'nalishi bo'yicha o'z mahsulotlari bilan ishtirok etib, tuman hamda viloyat hokimining qimmatbaho sovg'asi hamda diplom bilan taqdirlandi. Shu bilan birga, Jizzax shahridagi «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilariga o'zi tikkan yumshoq o'yinchoqlarni va shirinliklar ulashdi. Muxlisa «Kamolot» YIH o'tkazadigan tanlovlarda, tuman, viloyatda o'tkaziladigan madaniy tadbirlarda faol ishtirok etib, diplom va «Faxriy yorliq»lar bilan taqdirlagan.



ORZULARI OSMON QIZ

-Avvalo menga e'tibor berib, imkoniyat yaratib bergan ota-onamga, hunarmandchilik sirlarini erinmay o'rgatgan ustozim Mavjuda opa Mahmudovaga o'z minnatdorchiligimni bildiraman, - deydi Muxlisa. -Kelajakda orzularim ko'p. Oliyog'ha kirib tahsil olish, hunarmandchilik bo'yicha xususiy korxonacha ochib, o'zbekona, milliylikimizni o'zida mujassam etgan qo'g'irchoqlar yaratib, mehnatim bilan xalqimiz e'tiborini qozonish mening eng buyuk maqsadimdir.

Egnidagi raqqosalar libosi o'ziga yarashib turgan, ijod namunalari ila jonli tabiatni eslatadigan iste'dodli tengdoshingiz Muxlisa Qodirovaning bu orzulariga biz ham tilakdoshmiz.

Qalbingdagi intilish va mehr-muhabbat hissi hech qachon so'nmasin, Muxlisa.

Dilfuza MAHKAMOVA, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar OLIMJONOVA,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruz JALILOVA
(bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvov SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 48849
Buyurtma N: J 2544

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin SHAYADGAROV
Navbatchi:
Jamila ERDONOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:
700129,

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-23-81
144-63-08

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45